



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

SHAYX MAHDUMI XORAZMIY XONAQOHI TARIXI

Hamdamova Shoira

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada Samarqand shahrining tarixiy markazida joylashgan Shayx Mahdumi Xorazmiy xonaqohining tarixi, qurilish davri, me'moriy tuzilishi hamda ijtimoiy-diniy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda Shayx Kamoliddin Husayn Xorazmiyning hayoti va Kubraviya tariqatining Movarounnahr hududidagi faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar o'rganilgan. Manbalar asosida xonaqohning XVI asrda bunyod etilgani, keyingi davrlarda qayta ta'mirlanib, madrasa va boshqa ijtimoiy muassasa sifatida faoliyat yuritgani yoritiladi. Shuningdek, xonaqohning Samarqand shahri tarixiy-madaniy merosidagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Shayx Mahdumi Xorazmiy, xonaqoh, Samarqand, Kubraviya tariqati.

ИСТОРИЯ ХАНАКА ШЕЙХА МАХДУМИ ХОРЕЗМИ

Хамдамова Шоира

Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова, базовый докторант

Аннотация

В статье анализируются история, период строительства, архитектурная структура и социально-религиозное значение ханаки Шейха Махдumi Хорезми, расположенной в историческом центре города Самарканд. В исследовании изучены сведения о жизни Шейха Камолитдин Хусайн Хорезми и деятельности тариката Кубравия на территории Мавераннахра. На основе источников освещается, что ханака была построена в XVI веке, а в последующие периоды реконструирована и функционировала как медресе и социальное учреждение. Также раскрывается роль ханаки в историко-культурном наследии Самарканда.

Ключевые слова: Шейх Махдumi Хорезми, ханака, Самарканд, тарикат Кубравия.

HISTORY OF THE KHANAQAH OF SHEIKH MAHDUMI KHOREZMI

Hamdamova Shoira

Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Doctoral student

Abstract

The article analyzes the history, construction period, architectural structure, and socio-religious significance of the khanaqah of Sheikh Mahdumi Khorezmi located in the historical center of Samarkand. The study examines information related to the life of Sheikh Kamoliddin Husayn Khorezmi and the activities of the Kubrawiya order in the Mawarannahr region. Based on historical sources, it is highlighted that the khanaqah was built in the 16th century and later reconstructed, functioning as a madrasa and social institution. The role of the khanaqah in the historical and cultural heritage of Samarkand is also revealed.

Keywords: Sheikh Mahdumi Khorezmi, khanaqah, Samarkand, Kubrawiya order.

Tarixda ilk xonaqoh 766-yilda Abu Hoshimiy Kufiy tomonidan qurilgan bo'lib, "xonaqoh" deganda biror buzurg so'fiy tomonidan yoki unga atab qurilgan masjid, hovuz, minora, hujralar-u chillaxona, tahoraxona va ba'zan madrasa kabi imoratlar majmui nazarda tutilib, aksariyat hollarda unda dahma, ya'ni mashoyixlar qabri mavjud bo'ladi [6; 80 b].

XVI asrdagi xonaqohlar qurilishi Movarounnahrda XV asrga nisbatan misli ko'rilmagan darajada bo'ldi. XV asrda, Temuriylar davrida, bunday inshootlar asosan Amudaryoning janubida — Xuroson hududida barpo etilgan edi. Faqat kam sonli istisnolardan biri Samarqand chekkasidagi Abd-i Darun xonaqohi (taxm. 1430-yil) bo'ldi. XVI asrda Movarounnahrda yangi xonaqohlar va maqbaralarning qurilishi so'fiy jamoalar va ularning shayboniy homiylari o'rtasidagi kuchli raqobatning natijasi edi [10; 1 b].

Mana shunday so'fiy jamoaga tegishli, o'z davrida ko'plab tasavvuf vakillarini, darveshlar va ilm ahlini bag'riga olgan bir xonaqoh borki, u bugungi kunga qadar Samarqand shahridagi Registon maydonining sharqiy tomonida qad rostlab turibdi. Ushbu xonaqoh asli Xorazmdan kelgan Kubraviya tariqatining Hamadoniya-Husayniya suluki rahnamosi "Qutb ul-aqtob" Shayx Kamoliddin Husayn

Xorazmiyga tegishli bo‘lib, u shayxning hayotlik chog‘ida qurilgan deb taxmin qilinadi.

Ushbu maqolada Kubraviya tariqati pir-u murshidi Shayx Kamoliddin Husayn Xorazmiyning Samarqand shahridagi xonaqohi tarixi, uning tuzilishi va joylashuvi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, xonaqohning qachon qurilganligi va qayta ta‘mirlanishi masalasi, uning asrlar davomida qanday funksiyalarni bajargani to‘g‘risida manbalar orqali javob qidiriladi.

Ushbu shayx haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, Maxdumi Xorazmiy nomi bilan shuhrat qozongan Kubraviya tariqatining pir-u murshidi Hazrat Shayx Kamoliddin Husayn Xorazmiy 1465-yilda Xorazmda tug‘ilib, 1551-yilda Shomda (hozirgi Aleppo shahri) vafot etgan. Ajdodlari asli Andijondan bo‘lishgan [14; 79 b].

“Ravoyix ul-quds” asarida Husayn Xorazmiyning 18 yoshida Shayx Xabushoniy (1531–1532-yil Xorazmda vafot etgan) mulozamatiga yetishgani haqida yozilsa-da, Maxdum Xorazmiy oradan roppa-rosa 10 yil o‘tib, Shayx Xabushoniy bilan uchrashish uchun Xurosonga yo‘l oladilar va 11 yil ushbu zotdan barcha ilm-u urfonlarni o‘rganib, ul zotning xizmatida bo‘ladilar. “Jovdat ul-oshiqin” asarida Shayx Xabushoniyning Maxdumi Xorazmiyni ilk ko‘rganlarida, ular orqali Xorazmga Najmiddin Kubro yoygan tariqat chirog‘i yana qaytib borib, avvalgi yorug‘ligini tiklashiga ishora qilinadi. Chunki Najmiddin Kubrodan keyin Xorazmda Kamoliddin Husayngacha yetuk mashoyix darajasidagi murshid yetishib chiqmagan edi. Shuni ta‘kidlash joizki, Shayx Xabushoniy dastlab Kamoliddin Husaynga qo‘l bermaydilar va nog‘oraning ovozi uzoqdan chalinsa, yaxshi eshitiladi, deb, bu zotning shijoati-yu shashtiga yuqori baho berganlar. Bu holatdan shuni tushunish mumkinki, Shayx bu zotning sabr-u toqatini va haqiqiy ishtiyoqini sinash uchun ham ushbu ishni qilgan bo‘lsalar kerak. 11 yillik muridlikdan so‘ng, pirlari u kishiga ijozati kulliya, ya‘ni pirlilik va irshod berishga to‘la ruxsat beradilar [6; 18 b].

Xabushoniyning jamoati XVI asrda Shayboniyilar va Safaviylar o‘rtasidagi to‘qnashuvdan keyin Shayboniyilar tasarrufidagi hududga ko‘chadi. O‘sha paytda Husayn Xorazmiyga Buxoro xonligida jamoat tuzish vazifasi yuklatiladi. Shu vajdan 1517–1549-yillarda u Xorazm, Buxoro, Samarqand bo‘ylab bir necha bor safar qiladi [10; 3 b]. Safarlari davomida o‘zining haqiqiy tasavvufiy ilm-u urfonidan barchani bahramand etgan shayx ko‘plab muridlar va xalq e‘tiboriga sazovor bo‘ladi. Shu sababdan ham tasavvufda kishining nasabi emas, balki uning xizmati tufayli hurmat-e‘tiborga loyiq ko‘rilgan:

Bayt:

Hasab favqi nasabmas, ey nek hol,

Ipakdin o‘tkarrur ko‘p ishlagan shol [12; 25 b].

Xonaqoh tarixi

Shayx Husayn Xorazmiy 1520–1550-yillar oralig‘ida Movarounnahrda kamida beshta xonaqoh qurdirgan, ulardan faqat bittasining aniq joylashuvi ma‘lum. Ushbu bino yuqorida ta‘kidlangan Samarqandning markazida, Registon ansamblidan 300 metr sharqda joylashgan.

Shayxning o‘g‘li Sharafiddin Husayn tomonidan yozilgan va Shayxning hayoti haqida batafsil ma‘lumot beruvchi “Javdat ul-oshiqin” asarida Shayx Xabushoniyning farzandi Shayx Alouddavlaning Shayx Mahdumi Xorazmiy va uning xonaqohi haqidagi baytiga asoslanib, xonaqoh 1529-yilda qurilgan degan xulosaga kelish mumkin [6; 81 b]. Asarda uning quyidagi qit‘asi keltiriladi [11; 78 b] (forsiyda m.):

“...jumladan, Samarqanddagi bozorcha boshida (bu yerda hozirgi non bozori nazarda tutilmoqda m.) qurilishi bitkazilgan xonaqoh uchun quyidagi tarixni aytgan edilarki, ushbudir:

Mahdumi jahon hazrati irshod panoh (Xorazmiy)

Bino lavhida lutf qalami ila raqam urdi,

Uning jaloliga shohu faqirlar ta‘zimdaligiga

Butun jahonning zarralarigacha guvohlik bera oladi.

Suv-u tuproqdan ehsonli, karamli xonaqoh qurdiki,

Unga Ka‘baga borgan kabi xalq faxrlanib kelardi.

U haqiqi jilvasidan dengiz kabi mavjlanar,

Va xilvatdagilarni baliq kabi sho‘ng‘ishga chorlardi.

Uning har g‘ishti maqsad chehrasining oynasidir,

Uning har toshi shoh tojidagi gavhar kabidir.

U ko‘ngildagi fayz ma‘dani bo‘lib, tarixi:

Fayzlar boshlanishidan “ilohiy fayz”ga yetadi [6; 81 b].

Oxirgi baytdagi tarixdan murod bu uning sanasi ekanligini inobatga olinsa, “Fayzi Ilohi” so‘zi uning qurilgan sanasiga dalolat qilayotganini tushunish mumkin. Abjad tartibida ushbu iboradan 936 raqami kelib chiqadi. Hijriy 936-yil milodiy 1529-yilga to‘g‘ri keladi va shayxning 1517-yilda

Samarqandga ko‘chib o‘tganlarini inobatga oladigan bo‘lsak, xonaqoh qurish uchun yetarlicha vaqt o‘tganiga guvoh bo‘lamiz.

Samarqand arxitekturasi bo‘yicha mutaxassis hisoblangan V. Vyatkin tomonidan ham “...ancha keyingi davrlardan hozirgacha mavjud bo‘lgan Mahdumi Xorazmiy xonaqohi yonidagi Hasan Pahlavonning bozorчасi tilga olinadi”. Demak, Sari bozorcha deyilganda Shayxning mahallasi va xonaqohi joylashgan ko‘cha boshidagi bozorчaga ishora qilingan. Turkiston tarixini keng ko‘lamda o‘rganib tadqiq etgan olim M. Masson ham “Kamoliddin Husayn Xorazmiy Mirzo Ali No‘yon qizi Ofoq No‘yonning gumbazsimon maqbaraxonasi yonidan o‘zi shayxlik qilayotgan Kubraviya tariqati darveshlari uchun keng xonaqoh va hujralar qurdirdi. Hozirgi vaqtda xonaqoh ko‘rlar uyiga aylantirilgan”, deb yozib qoldiradi [6; 83 b].

Biroq Tojikiston Fanlar akademiyasi akademigi A. M. Muxtorov o‘zining “Ayollar ismi keltirilgan qayroq-qabrtoshlar (XIV–XVI asrlar)” nomli tadqiqotida Shayboniylar davrida Samarqandda hukm surgan Odilshohning onasi Mehribonxonim degan ayolning Pahlavon Hasan nomidagi bozor joylashgan mavze yaqinida xonaqoh qurilganligini ta‘kidlaydi. U “Jovdat ul-oshiqin” kitobining Dushanbe nusxasini manba sifatida keltiradi. Biroq O‘zbekistondagi nusxada ushbu ma‘lumotlar qayd etilmagan. Ushbu ayol aslida Muhammad Shayboniyxonning o‘g‘li Temur Sultonning xotini bo‘lib, u tarixda Shayboniyxon madrasasi qurilishini poyoniga yetkazgani bilan nom qoldirgan. Ayolning Po‘lod Sulton ismli o‘g‘li Shayx Xorazmiyga irodat etgani haqida manbalarda qayd etiladi. Shundan kelib chiqib, onabola xonaqoh qurilishida qandaydir yordam taqdim etgan bo‘lishlari ham mumkin, ammo bu haqida hali biror manbaga duch kelinmagan [6; 82 b].

Hozirda mavjud xonaqohning qachon qurilganligi xususida o‘sha mahallada yashayotgan avlodlari XIX asr boshida degan xulosani berishadi. Ular xonaqohning ko‘cha tomondagi shimoliy devorida yozilgan “1326” hijriy sanani dalil keltiradilar. Bu sana milodiy 1807-yillarga muvofiq bo‘lib, mang‘itlar sulolasidan Amir Haydar zamoniga to‘g‘ri keladi. Lekin Samarqandda ko‘plab talofatlar va vayronagarchiliklar bo‘lganligini inobatga oladigan bo‘lsak, bu hukmdor va uning otasi amir Ma‘sum — Shohmurod davrida juda ko‘p bino va inshootlar obod etilib, qaytadan ta‘mirlangan. Sana shu bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin [6; 78 b].

Xonaqoh 2000-yil Imom al-Moturudiyga bag‘ishlab o‘tkazilgan xalqaro anjuman sabab qisman ta‘mirlangan. Ammo madrasa, minora, hujra, chillaxona, hovuz, dahma kabi odatiy xonaqohlarga xos tuzilmalar davrimizgacha yetib kelmagan [6; 83 b].

2001–2002-yillardagi ta‘mirlash ishlari davomida u “Maxdumi A‘zam xonaqosi” yoki “Maxdumi Xorazm madrasasi” sifatida qayta nomlandi [10; 4 b]. Shu nomdagi mahalla ham mavjud bo‘lib, u yerda hozirgacha shayxning avlodlari istiqomat qiladi.

Xulosa. Xonaqoh tarixini o‘rganar ekanmiz, uning asrlar davomida o‘z faoliyatini o‘zgartirganiga guvoh bo‘lamiz. Chunki dastlab Movarounnahrda Kubraviya tariqatining asosiy markazlaridan biri bo‘lgan bu xonaqoh XIX asrdagi arxiv hujjatlari, tarixchilarning qaydnomalariga ko‘ra, o‘zining asosiy funksiyasini o‘zgartirib, endi madrasa sifatida faoliyat yurita boshlagan. Bu yerda nafaqat ko‘zi ojiz, balki sog‘lom kishilar ham tahsil olishgan. Bu haqda O‘zbekiston milliy arxivida saqlanayotgan I-20 jildidagi 15020-raqamli hujjatga javoban yozilgan hisobotda quyida shunday deyiladi: “Shu yilning (1907-yil) 12-sentabrda Samarqand viloyat boshqarmasining 15020-raqamli xatiga javoban: har yilgi foydadan ... madrasada o‘qiydigan ko‘r va ko‘r bo‘lmagan o‘quvchilarga 496 rubl 40 kopeykadan mablag‘ ajratiladi”. Shuningdek, uyezd boshlig‘idan Samarqand viloyat boshlig‘iga yo‘llangan hisobot xatida (1907-yil dekabr) 20068-raqamli 2-dekabrda hujjatga javoban madrasada o‘quvchi ko‘rlar 308 rubl 60 kopeyka, ko‘r emaslar 187 rubl 80 kopeyka olishgan. Yuqoridagi arxiv hujjatlaridan ko‘rinib turganidek, Mahdumi Xorazmiy xonaqohi XX asr oxirlariga kelib asosan madrasa sifatida mavjud bo‘lgan. Keyingi yillarda esa Shayx Mahdumi Xorazmiy avlodlaridan va shu nomdagi jamg‘arma raisi Moxito‘ra Tursunovanning qayd etishicha, ushbu bino 1938-yili sovet hukumati tomonidan 25-sonli shahar bolalar bog‘chasiga aylantiriladi. Bugungi kunga kelib binoning faqatgina bir qismi saqlanib qolgan bo‘lib, masjid hovlisida hovuz ham qayta qurilgan. Umuman olganda, ushbu binoning tarixi va asrlar osha faoliyati to‘g‘risida ko‘plab arxiv hujjatlari va boshqa manbalarni tadqiq etish orqali yanada mukammal ma‘lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бартольд В. В. К истории орошения Туркестана // Сочинения. — Т. 3: Работы по исторической географии. — Москва, 1965. — С. 95–233.

2. Бартольд В. Работы по источниковедению. — Т. 8. — Москва: Наука, 1973.
3. DeWeese D. The eclipse of the Kubraviyah in Central Asia // *Iranian Studies*. — 1988. — Vol. 21, No. 1–2. — P. 45–83.
4. Karimov E. Sacred sites, profane ideologies: religious pilgrimage in Central Asia // *Everyday Life in Central Asia: Past and Present* / ed. by J. Sahadeo, R. Zanca. — Indiana University Press, 2007.
5. Karimov E. The Kubraviya vaqf (17th–19th centuries): written sources on the late history of the Kubravi sufi brotherhood in Central Asia. — Tashkent: Fan, 2008.
6. Kattayev K. Maxdumi Xorazmiy va xonaqohi tarixi. — Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2003.
7. Маликов А. Правление Шибанидов в Самарканде: легитимация, культура и монументальное зодчество (1512–1578) // *Золотоордынское обозрение*. — 2023. — Vol. 11, No. 1.
8. Mirkomilov E. Mahmud G‘ijduvoniyy “Miftohi ut-tolibin” asarining Ogahiy tarjimasini // *Sharqshunoslik*. — 2015. — № 2–3.
9. Namozov B. Sharq allomalarining ilmiy-ma’naviy merosi: o‘quv qo‘llanma. — Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, Durdona, 2022.
10. Schwarz F. An endowment deed of 1547 (953 h.) for a Kubravi khanaqah in Samarkand.
11. Sharafiddin Husayn. Javdat ul-oshiqin. — Qo‘lyozma. — Beruniy nomidagi Sharq qo‘lyozmalar instituti, № 3084. — B. 78.
12. XV–XVI asr tasavvuf namoyondalari ilmiy merosining ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarini yuksaltirishdagi o‘rni va ahamiyati. — II-qism. — Samarqand: SamDU nashri, 2012.
13. ДеВис Д. Хусайн Хоразмий: среднеазиатский суфий начала XV в. // *Из истории суфизма: источники и социальная практика*. — Ташкент: Фан, 1991.
14. Исмоилов Л. Е. Очерки истории мавераннахрского суфизма (XVI в.). — Новосибирск: Вояж, 2017.
15. Кныш Д. А. Мусульманский мистицизм. Краткая история. — М.–СПб., 2004. — С. 272.